

**ANDIJON VILOYATI IZBOSKAN TUMANIDA 2021-2023 YILLARDA
AMALGA OSHIRILGAN TASHABBUSLI BYUDJETLASHTIRISH
JARAYONI**

Lutfullayev Nurislomxon, Valiyeva Gulhayo , Zaripboyeva Muqaddam

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

“Moliya” fakulteti 82-guruhan talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada Andijon viloyati Izboskan tumanida 2021-2023 yillarda tashabbusli byudjetlashtirish jarayonida ajratilgan mablag’lar miqdori va amalga oshirilgan loyihalar tahlil qilingan.

Kalit so’zlar : tashabbusli byudjet, openbudget.uz, tashabbus, ovoz berish, moderatsiya, ishchi komissiya, g’olib loyihani aniqlash, “Fuqarolar tashabbusli jamg’armasi”, shartnomma tuzish.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda byudjet ma’lumotlarining ochiqligi va shaffofligini yanada oshirish, byudjet mablag’larining shakllanishi va sarflanishi ustidan va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Biz mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tashabbusli byudjetlashtirish amaliyoti, mavjud holatni o’rganish uchun Andijon viloyati Izboskan tumani misolida 2021-2023-yillarda “Tashabbusli byudjet” loyihalari va ularning ijrosi yuzasidan olib borilgan ishlar bilan bog’liq ma’lumotlar bilan tanishib chiqdik.

Quyidagi 1-jadvalda Andijon viloyati Izboskan tumanida tashabbusli budjetlashtirish uchun yo’naltirilgan mablag’lar miqdori, yil boshiga va yil oxiriga byudjet hisobida qolgan qoldiqlari miqdori haqida shuning bilan birgalikda loyihalarning moliyalashtirilgan mablag’larini ko’rishimiz mumkin.

**1-
jadval**

**Andijon viloyati Izboskan tumani tashabbusli budjetlashtirish uchun
yo’naltirilgan mablag’lar miqdori¹**

(ming so‘mda)

¹ <https://openbudget.uz/boards/reports>

T/r	Ko‘rsatkich nomi	2021-yil	2022-yil	2023-yil
1.	Yil boshiga qoldiq	0	1455600	289600
2.	Hisobot davrida “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga o‘tkazilgan mablag‘lar	-	16902305	15295455
3.	“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan	220000	18040000	14948048
3.1	Bajarilgan ishlar uchun xisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag‘lar	100000	12757000	6401426
3.2	Hisobvaraqlardagi qoldiq	120000	5283000	8546622
4.	“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”da qoldiq mablag‘	-	317905	637007

Yuqoridagi jadvaldan guvohi bo’lishimiz mumkinki(1-jadval) 2021-2023-yillar mobaynida tashabbusli byudjet loyihasiga ajratilayotgan mablag‘lar miqdori yil sayin o’sish va kamayishi kuzatilgan. Bunda 2021-yilda 220 mln. so’m miqdoridagi summa ajratilgan bo’lsa, 2022-yilda 1 mlrd. 804 mln. so’m miqdoridagi summa ajratilgan va bu 2021-yilga nisbatan 8.2 barobarga yoki 1 mlrd. 584 mln. so’mga ko’p. 2023-yilda Tashabbusli byudjet loyihalari uchun qariyb 1 mlrd. 495 mln. so’m miqdorida pul mablag‘lari jalb qilingan bo’lsa, bu 2022-yilga qaraganda 309 mln. so’mga kamayganini guvohi bo’lishimiz mumkin. Shu bilan birga quyidagi jadvalda (2-jadval), 2021-2023-yillar oralig’ida qaysi soha va yo’nalishlar moliyalashtirilganligi va qaysi sohadalarda kamchiliklar ko’proq bartaraf etilgani guvohi bo’lishimiz mumkin.

2-jadval

Andijon viloyati Izbosgan tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan tadbirlar²

T/r	Tadbirlar nomi	Moliyalashtirilgan takliflar soni	Sarflangan mablag’ (ming so‘mda)

² <https://openbudget.uz/boards/reports>

			2021-yil	2022-yil	2023-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Jami		3	24	6		130000	18040000	7060000
1.	Hududiy ichki yo'llar	1	4	5	50000	4310000	6060000	
2.	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash	-	8	-	-	5880000	-	
3.	Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	-	3	1	-	2220000	1000000	
4.	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	-	5	-	-	3580000	-	
5.	Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	-	3	-	-	1650000	-	
6.	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash	1	-	-	70000	-	-	
7.	Ko'cha chiroqlarini o'rnatish tadbirlari	-	-	-	-	-	-	
8.	Hududlarni tartibga keltirish (obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish)	-	1	-	-	400000	-	
9.	Boshqa tadbirlar	1	-	-	10000	-	-	

Yuqorida jadvaldan shuni guvohi bo'ldikki: umumiylar 2021-2023-yillar oralig'ida, hududiy ichki yo'llar uchun jami 10 ta loyiha, umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash uchun jami 8 ta loyiha, maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash uchun jami 4 ta loyiha, sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash uchun 5 ta loyiha, boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash uchun ta loyiha, ichimlik suvi ta'minotini

Modern education and development

yaxshilash uchun 1 ta loyiha, hududlarni tartibga keltirish (obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish) uchun 1 ta loyiha, boshqa tadbirlar uchun jami 1 ta loyiha moliyalashtirilgan. Bizga ma’lumki O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining, “Tashabbusli byudjet jarayonlarini o’tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to’g’risidagi nizomi”da Tashabbusli byudjet loyihalari g’oliblarini moliyalashtirish tartibi keltirib o’tilingan. Unga ko’ra quyidagilar tashabbusli budget jarayonini moliyalashtirishga yo‘naltiriladi: tuman (shahar)lar budgetlarining tasdiqlangan umumiylar xarajatlarining kamida 5 foizi;

tuman (shahar) budgetlari qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining budgetlari qo‘shimcha mablag‘larining 30 foizi; tuman (shahar) budgetlarida ichki yo‘llarni ta’mirlash uchun ko‘zda tutilgan mablag‘lar; vazirlik va idoralarning tegishli davr uchun tasdiqlangan rivojlantirish dasturlari doirasida ko‘zda tutilgan mablag‘lar.

3-jadval

Andijon viloyati Izboskan tumanida Fuqarolar tashabbusli jamg’armasi mablag‘larining shakllanish manbaalari³

(mln.so‘mda)

Fuqarolar tashabbusi jamg’armasi mablag‘larini shakllantirish manbalari	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Tuman mahalliy budgeti tasdiqlangan umumiylar xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mabag‘lar		1 019 600	13 696 096
Mahalliy budgetining yil boshiga shakllangan Erkin qoldiq mablag‘lari			
Tuman mahalliy budgeti qo‘shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag‘lar	220 056	205 2705	258 4320
Erkin qoldiq mablag‘lari		214 743	263 360

³ <https://openbudget.uz/boards/reports>

Shu jumladan	Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi	220 056	337 923	220 960
	Iqtisod qilingan mablag'lar			
Jami ajratiladigan mablag'lar	220 056	6 902 305	4 380 416	

Yuqoridagi (3-jadval)dan shuni anglashimiz mumkinki Andijon viloyati Izbosgan tumanida 2021-yil 1-chorak uchun tuman mahalliy budgeti qo'shimcha manbaalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar 100 mln. so'mni tashkil etgan va bu summa 2-chorakda 120 mln. so'mga oshgan. Shu jumladan 2021-yil 4-chorak yakuni bo'yicha tuman miqyosida 1mlrd. 280 mln. so'mni tashkil qilgan. Ushbu ko'rsatkichlar 2022-yilga kelib ijobjiy ko'rsatkichlarni ko'rsatadi. Ya'ni: Tuman mahalliy budgeti tasdiqlangan umumiylar xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mabag'lar 1-chorakda, 5 mlrd. 509 mln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2-chorakda ham huddi shu holat takrorlangan. Tuman mahalliy budgeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar esa 1-chorak holatiga qariyb 395 mln. so'mni tashkil qilgan bo'lsa 2-chorakda qariyb 452 mln. so'm 3-chorakda esa qariyb 206 mln. so'mni tashkil qilgan. Erkin qoldiq mablag'lari qariyb 215 mln. so'm miqdorida jalb etilgan.

2023-yil holati uchun tahlil qiladigan bo'lsak, tuman mahalliy budgeti tasdiqlangan umumiylar xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mabag'lari 1-chorakda 6 mlrd. 848 mln. so'mni tashkil qilgan. Bu esa 2022-yil 1-chorak ga qaraganda 1 mlrd. 338 mln. so'mga ko'p. 3- chorak hisobi bo'yisha ham 6 mlrd. 848 mln. so'm miqdoridagi pul mablag;lari ajratilgan. Tuman mahalliy budgeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar esa 1-chorakda 463 mln so'mni tashkil qilgan va bu 2022-yil 1-choragiga nisbatan 68 mln. ga 2021-yil 1-choragiga nisbatan esa 363mln. so'mga ko'p. 2-chorakda esa 194 mln. so'mni, 3-chorakda umumiylar 26 mln. so'mni qayt etgan. Shu bilan quyidagi jadvaldan shuni guvohi bo'lishimiz mukin, 2021-yil 1-faslda umumiylar 220 mln. so'm jalb etilgan. 2022-yil 1-faslda umumiylar qariyb 847 mln. so'm 2-faslda esa qariyb 206 mln. so'm jalb etilgan. 2023-yilda esa bu ko'rsatkichlar 1-

Modern education and development

fasl uchun qariyb 8 mlrd. 406 mln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2-fasl uchun esa, 6 mlrd. 874 mln. so'mni tashkil qilgan. (3-jadval)

4-jadval

Andijon viloyati Izboskan tumani tashabbusli budgetlashtirish natijasida amalga oshirilgan loyihalar tarkibi⁴

	Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)	Jami to'plagan ovozlar soni	Moliyalashtirish uchunajratilganmablag' miqdori
2021-yilda			
	Taraqqiyot MFY Oqmozor ota dafn etish Joyiga qorovulkxona qilish	192	100000
2.	Solboshi MFY hududiga ichimlik suvi tortish	68	70000
3.	Rovot MFY sokin ko'chasini asfalt qilish	1	50000
2022-yilda			
1.	Izboskan tuman Gurkirov MFY hududida joylashgan 27-umumiyl o'rta ta'lim mакtabining o'quv binosini eshik va romlarini yangilash	1895	700000
2.	Izboskan tuman GuzarMFY hududida 12-umumiyl o'rta ta'lim mакtabining moddiy	1887	750000

⁴ <https://openbudget.uz/boards/reports>

Modern education and development

	texnika yangilashga	bazasini		
3.	Izboskan tuman M.Ulug'bek MFY hududida joylashgan Tibbiyot Birlashmasi ichki kasalliklar bo'limi binosini joriy ta'mirlash	1795	530000	
4.	Izboskan tuman Solboshi MFY hududida joylshgan 21-maktabgacha ta'lim tashkilotini qo'rg'ondevor qilish	1755	300000	
5.	Izboskan tuman Tuyachi MFY hududida joylashgan Fayzobod hamda Yoshtadbirkor ko'chalarini asfalt qilish	1586	1000000	
6.	Izboskan tuman Navjur MFY hududida joylashgan Lug'umbek madaniyat uyiga isitish tizimini yangilash	1494	550000	
7.	Izboskan tuman Navoiy MFY hududida joylashgan Tibbiyot birlashmasi Tez yordam bo'limini isitish tizimi hamda binoni fasat qismini joriy ta'mirlash	1374	480000	
8.	Izboskan tuman Solboshi MFY hududida joylashgan 38-umumiyl o'rta ta'lim maktabining o'quv binosining eshik va romlari	1342	1080000	

Modern education and development

	hamda sinf xonalari pol qismini yangilash		
9.	Izboskan tuman Zarbdor MFY hududida joylashgan 4-umumi o'rta ta'lim matabining ta'mir talab sinf xonalarini ta'mirlash hamda sport zalini ta'mirlash	1199	490000
10.	Izboskan tuman MFY hududida joylashgan Tibbiyot birlashmasi Markaziy poliklinika tashqi qismini hamda binoni 1 qavatini ta'mirlashga	1109	250000
11.	Izboskan tuman Zarbdor MFY hududida joylashgan 4-umumi o'rta ta'lim matabining isitish tizimini ta'mirlashga	993	200000
12.	Izboskan tuman A.Jomiy MFY hududida joylashgan dorvoz ko'chasini beton yo'l qilishga	991	960000
2023-yilda			
1.	Istiqlol MFY hududidagi 11-umumi o'rta ta'lim matabini moddiy texnik bazasini yangilash	5503	1000000
2.	12-maktabning ichki va tashqi yo'llarining	5363	1200000

Modern education and development

	asfaltlash orqa fasad qismini ta'mirlash		
3.	14-umumiy o'rta ta'lim mактабини моддиy texnika bazasini yangilash hamda mактабни ichki va tashqi fasadini ta'mirlash	5065	1200000
4.	57-IDUMga zamonaviy oshxona qurish, sport zali ta'mirtalab zamonaviy ta'mirdan chiqarish va sport anjomlarini bilan ta'minlash hamda 24 o'rinni	4982	1200000
5.	Izboskan tuman TTB bo'limiga UVCH-80 1dona,UVCH-66 1dona,Amplinuls-4 2dona,operatsion stol 1dona apparat sotib olish	4460	1200000
6.	4-umumiy o'rta ta'lim mактабини eshik va romlarini yangilish,qo'rg'on devor qilish,faollar zalini ta'mirlash	4212	1100000
7.	Izboskan tuman 1-son kasb-xunar mактabi moddiy texnika bazasini yangilash,o'quv binoni joriy ta'mirlash	2646	1200000
8.	Izboskan tumani markazida joylashgan ko'p tarmoqli poliklinika binosini joriy ta'mirlash	2397	1200000

9.	10-umumiyl o'rta ta'lim maktaabni moddiy texnika bazasini yangilash	4874	1200000
10.	Izboskan tumani Log'umbek KTMP binosini ta'mirlash eshik va romlarini yangilash hamda moddiy texnik bazasini yaxshilash	2007	1200000

Andijon viloyati Izboskan tumani 2021-yildagi tashabbusli budgetlashtirish natijasida amalga oshirilhan loyihalar tarkibi ko'radigin bo'lsak 4 chorak yakunlari bo'yicha 3 loyiha moliyalashtirilgan bo'lib bu loyihalarni moliyashtirish uchun ajratilgan pul mablag'i 220 mln. so'mni tashkil etsa shundan foydalanilgan pul mablag'i qiymati 100 mln. so'mni tashkil qilgan .Bu loyihalar hududiy ichki yo'llar va qorovulkxona qurish va ichimlik suvi uchun sarflangan .Bu loyiha tasdiqlanishida Izboskan Tumani Mahallar faollari va fuqarolari faol ishtirok etishgan bo'lib 261 fuqarolar tomonidan ovoz yig'ilib ushbu loyiha 15 % ovoz onlayn 0% ovoz offlays va 85 % ovoz esa mobil telfon sms orqali berilgan. Tashabbusli budgetlashtirish natijasida amalga oshirilgan 2022 yil loyihalar tarkibi ko'radigon bo'lsak 4 chorak yakunlari bo'yicha 12 ta loyiha moliyashtirilgan bolib bu loyihalarni moliyalashtirish uchun ajratilgan pul mablag'lari qiymati 18 mlrd. 357 mln. so'mni tashkil etadi bu summa 2021 yilga nisbatan 98.80% ko'p ajratilgan summadan foydalanilgan summa esa 12 mlrd. 757 mln. so'mni tashkil etadi . Bu loyihalar umumtalim maktablarini tamirlash va qayta jihozlash uchun, hududiy ichki yo'llarga va qolgan qilsmi esa sog'liqni saqlash muassasalarni tamirlash va qayta jihozlash va ijtimoiy muassasalarii tamirlash va qayta jihozlash uchun jalb etilgan .Bu loyihalar uchun Izboskan tumani mahallar a'zolar faol qatnashgan desak tog'ri bo'ladi. Ovozlar soni jami 17 420 donani va ushbu ovovzlarning 118 donasi ya'ni 0,01% onlayn, offlays ovozlar soni esa mavjud emas va 17 302 dona ovozlar ya'ni 0,99% sms orqali berilgan.

Andijon viloyati Izboskan tumani tashabbusli budgetlashtirish natijasida amalga oshirilgan 2023 yil loyihalar tarkibi ko'radigon bo'lsak 4 chorak yakunlari bo'yicha 10 ta loyiha moliyalashtirilgan bo'lib bu loyiha uchun ajratilgan pul mablag'lari miqdor 15 mlrd. 295 mln. so'm tashkil etadi , bu ko'rsatkich 2022

yilga nisbatan 20,02% kam degani . 2023 yil ajratilgan tashabbusli byudjet mablag'ning foydalanilga qismi esa 6 mlrd. 400 mln. so'mni tashkil etgan . Bu summaning asosiy qismi umumtalim maktablarini tamirlash va qayta jihozlash uchun, sog'liqni saqlash muassalari tamirlash va qayta jihozlash uchun qolgan qismiesa hududiy yo'llar uchun va hududiy obodonlashtirish va boshqa ijtimoiy muassalarni tamirlash va qayta jihozlash uchun sarf etilgan. 2023 yil ham Andijon Viloyati Izboskan tumani faollar masulliyatli yondashgan holda ushu loyihalarga ovoz berishgan. Bunda jami ovozlar soni 41 509 ta ovozni tashkil etgan bo'lsa shundan barcha ovozlar sozi 100% sms orqali yuborilgan.

Yuqoridagi barcha jadvallar ma'lumotlardan kelib chiqib shuni xulosa qilishimiz mumkinki 2021-2023-yillar orlig'ida tashabbusli byudjet doirasida Izboskan tumanida istiqomat qiluvchilar va boshqa aholilar orasidagi fuqarolar faolligi oshgan. Tashabbusli byudjet loyihasiga berilayotgan loyihalarning soni yil sayin oshib borishi, ularning moliyalashtirilishi uchun berilayotgan ovozlarning ortib borishi va shu jumladan tuman doirasida loyihalalar moliyalashtirilishi uchun byudjet summasining ortib borishida ham buning tasdiqini ko'rishimiz mumkin. Davlatimiz tomonidan berilayotgan bunday erkinliklarning vujudga kelishida, viloyat va tumanlar orasida byudjet mablag'larining sarfida aholining ishtirokini oshirishda va uning aholi uchun eng kerakli va dolzarb bo'lgan yo'naliishlarga sarflanishida "Tashabbusli byudjet" loyihasining o'rni katta. Kelajakda bu loyihami qo'llab quvvatlab, davlat miqyosida, aholining keng ko'lamenti qamrab olish, xorij tajribasini o'rganib, uning o'zimizda ham joriy ettirish yo'llarini ishlab chiqish davlatimizning eng oliy va dolzarb masalalaridan biri bo'lishi kerak. Shu orqali biz yurtimizdag'i chekka hududlarda ham katta o'zgarishlarga va yaxshi infratuzilmalar qurilishiga shuning bilan birgalikda aholi turmush tarzining yaxshilanishiga sabab bo'lishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Ваҳобов АВ, Маликов ТС. Молия. Дарслик/ТошкентМолияинститути. Тошкент:“Шарқ. 2010;804.
- 2.Malikov, T., andHaydarovNH. Byudjet. "O'quvqo 'llanma." Toshkent:"Iqtisod-moliya 84 (2008).
- 3.TS Malikov, O Olimjonov. Moliya. - O 'quv qo 'llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018

- 4.Malikov T, Haydarov N. Budjet daromadlari va xarajatlari. O‘quv qo‘llanma, Toshkent:“IQTISOD-MOLIYA. 2007.
- 5.Маликов ТС. Ҳайдаров НҲ “Молия: умумдавлат молияси”. Ўқув кўлланма. 2009.
- 6.Malikov TS. Byudjet-soliq siyosati. T.:“Iqtisod-moliya. 2019.
- 7.Malikov, T. S., & Olimjonov, O. O. (2019). Moliya: Darslik.
- 8.Malikov T, Haydarov N. Budjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O‘quv qo‘llanma, Toshkent “IQTISOD-MOLIYA. 2008.
- 9.Ўроқов У. Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари. Т. 2017
- 10.У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари- Science and Education, 2022
- 11.У Ўроқов, Д Ускенбаева. Ўзбекистонда ташаббусли бюджетни жорий этишнинг ташкилий-хукуқий асослари - Science and Education, 2022
- 12.Ўроқов У, Иргашев И, Ғайбуллаев О. Фуқаролариштироқидагимаҳаллий бюджет. 2022
- 13.UY O'roqov, JA Yomg'Irov. Mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlash masalalari - Central Asian Research Journal for Interdisciplinary ..., 2022
- 14.Ўроқов УЮ. Маҳаллий бюджетлар шаффоғлиги ва очиқлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журнали. 2020;4.
- 15.Ўроқов У. Ғайбуллаев О. ЎзбекистонРеспубликасида бюджет тизимиважараёни: ўқувқўлланма. Тошкент: Baktriapress. 2016.
- 16.Уроков У. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишга оид назарий карашлар. Республика илмий-амалий конференция. ТМИ 2020.
- 17.Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар. 2020
- 18.Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари. 2017
- 19.Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари. Республика ўқув юртлараро конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).

20. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақилигини оширишнинг замонавий муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022 йил.
21. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг хуқуқий асослари.- Science and Education, 2023
22. G‘aybullayev O, O‘roqov U. O‘zbekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni. O‘quv qo‘llanma. T.: Baktriapress. 2016;168.
23. Xaydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Akademiya. 2007.
24. Хайдаров НХ. Маҳаллий бюджетлар: муаммо ва инновацион ечимлар. Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журнали. 2020.
25. Хайдаров Н. Доходы местных бюджетов и пути их укрепления.“Молия” илмий журнали. 2022.
26. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетларнинг даромад манбалари. халқаро илмий-амалий конференция 2022.
27. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетлар даромадини барқарорлаштириш йўллари. халқаро илмий-амалий конференция мақолалар тўплами (Vol. 2022).
28. Машарипов И. Б. Фуқаролик жамиятининг ривожланиш даражасини баҳолаш индекслари. ЎзМУ ХАБАРЛАРИ.2018. 1/6 сон.